


2019-yil 1-oktyabr holatiga yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

2019-yilning yanvar-sentyabr oylarida viloyatimizda 2134 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 962 taga ko'pdir.

Natijada, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 2081 ta (19,2 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 12941 tani tashkil etgan.






Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yilning 1-oktyabr holatiga 12941 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 19,2 %ga o'sgan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 26,7 % savdo, 13,3 % sanoat, 10,2 % qurilish, 12,4 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 6,3 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,7 % tashish va saqlash, 1,4 % axborot va aloqa, 1,1 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 23,9 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan
korxonalar va tashkilotlar**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

| | Umumiy soni, birlikda | | 01.10.2019 yil | |
|--|-----------------------|----------------|---|--------------------|
| | 01.10.2018 yil | 01.10.2019 Yil | O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % | Jamiga nisbatan, % |
| Jami | 10860 | 12941 | 119,2 | 100,0 |
| <i>shundan:</i> | | | | |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 1353 | 1606 | 118,7 | 12,4 |
| Sanoat | 1271 | 1721 | 135,4 | 13,3 |
| Qurilish | 1000 | 1321 | 132,1 | 10,2 |
| Savdo | 2870 | 3456 | 120,4 | 26,7 |
| Tashish va saqlash | 586 | 605 | 103,2 | 4,7 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 600 | 818 | 136,3 | 6,3 |
| Axborot va aloqa | 166 | 175 | 105,4 | 1,4 |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 128 | 145 | 113,3 | 1,1 |
| Boshqa turlari | 2886 | 3094 | 107,2 | 23,9 |

Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Guliston shahri (3966 ta), Sirdaryo (2037 ta), Sayhunobod (1038 ta) va Guliston (984 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Shirin shahri (295 ta), Sardoba (545 ta) hamda Oqoltin (564 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 12189 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 2067 ta (20,4 %) ga o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 26,5 % savdo, 13,4 % sanoat, 10,3 % qurilish, 12,0 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 6,3 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,6 % tashish va saqlash, 1,4 % axborot va aloqa, 1,2 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 24,3 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Guliston shahri (3719 ta), Sirdaryo (1844 ta), Sayhunobod (998 ta) Boyovut (943 ta) va Mirzaobod (920 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Shirin

shahri (272 ta), Sardoba (525 ta) hamda Oqoltin (546 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

**Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil yanvar-sentyabr oylarida 2134 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 82,1 %ga ko'pdir.


Yanvar-sentyabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Guliston shahri (556 ta), Sirdaryo (333 ta), Boyovut (171 ta) va Guliston (162 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Shirin shahri (45 ta), Xovos (129 ta) hamda Oqoltin (135 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

2019-yilning yanvar-sentyabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (687 ta), sanoat (445 ta), qurilish (263 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (256 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (18 ta), axborot va aloqa (21 ta) hamda tashish va saqlash (38 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

**2019-yilning yanvar-sentyabr oylarida yangi tashkil etilgan
korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy
faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tijorat korxonalari
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil 1-oktyabr holatiga 10101 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar - 2890 ta, oilaviy korxonalar - 148 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar - 6755 ta va boshqalar 308 tani tashkil etgan.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat ko`rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

Mas`uliyati cheklangan jamiyati



Xususiy korxonona




Oilaviy korxonona




Unitar korxonona



Aksiyadorlik jamiyati



Boshqalar




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar


2019-yil 1-oktyabr holatiga faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 146 tani tashkil etdi. O`tgan yilning shu davriga nisbatan 44 ta ga yoki 44,6 %ga o`sgan. Ushbu korxonalarining asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog`iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to`g`ri keladi.

2019-yil 1-oktyabr holatiga xorijiy kapital ishtirokida 146 ta korxonona va tashkilotlar faoliyat ko`rsatayotgan bo`lib, bu korxonona va tashkilotlarning eng yuqorisi Sirdaryo (54 ta), Guliston shaxri (32 ta), Yangiyer shaxri (18 ta) va Sayhunobod (11 ta) tumanlari hissasiga to`g`ri keladi. Eng kami esa Guliston (1 ta), Shirin shaxri (4 ta), Oqoltin (3 ta) hamda Sardoba (4 ta) tumanlariga to`g`ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining yillar kesimida soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni, birlikda




Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 101 tasi qo'shma korxonalar, 45 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda




Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining faollik darajasi, %



**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**

| | Korxonalar soni | Jamiga nisbatan ulushi, % |
|--------------------------|------------------------|----------------------------------|
| Sirdaryo viloyati | 146 | 100,0 |
| Oqoltin tumani | 3 | 2,1 |
| Boyovut tumani | 7 | 4,8 |
| Sayhunobod tumani | 11 | 7,5 |
| Guliston tumani | 1 | 0,7 |
| Sardoba tumani | 4 | 2,7 |
| Mirzaobod tumani | 7 | 4,8 |
| Sirdaryo tumani | 54 | 37,0 |
| Xovos tumani | 5 | 3,4 |
| Guliston shahar | 32 | 21,9 |
| Shirin shahar | 4 | 2,8 |
| Yangiyer shahar | 18 | 12,3 |

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yilning yanvar-sentyabr oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalar soni 39 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 21 taga ko'paygan.

Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalar asosiy qismi Guliston shahar (9 ta yoki jami ulushi 23,1 %), Sirdaryo tumani (7 ta yoki 17,9 %) va Yangiyer shahri (8 ta yoki 20,5 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital

ishtirokidagi korxonalar Shirin shahar (2 ta yoki 5,1 %), Mirzaobod tumani (1 ta yoki 2,6 %) va Sardoba tumani (1 ta yoki 2,6 %) hissalariga to'g'ri keladi.


**2019-yilning yanvar-sentyabr oylarida
yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, birlikda**



Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 2 ta, Turkiya Respublikasi - 4 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 11 ta, Qozog'iston Respublikasi - 5 ta va Koreya Respublikasi - 2 ta korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2019-yil yanvar-sentyabr oylarida Afg'oniston Islom Respublikasi, Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat (24 ta), savdo (9 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (3 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kamlari esa axborot va aloqada (1 ta) hamda qurilish (2 ta), tashkil etgan.


2019-yilning yanvar-sentyabr oylarida yangi tashkil etilgan
xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Kichik korxonalar va mikrofirmalar
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2019-yil 1-oktyabr holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 10052 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018-yil 1-oktyabr holatiga qaraganda 24,3 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 3210 tasi (31,9 %) Guliston shahri, 1583 tasi (15,7 %) Sirdaryo, 823 tasi (8,2 %) Sayhunobod hamda 760 tasi (7,6 %) Mirzaobod tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning
hududlar kesimida jamidagi ulushi**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 10052 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 3216 tasi (32,0 %) - savdo, 1615 tasi (16,1 %) - sanoat, 1257 tasi (12,5 %) - qurilish, 1443 tasi (14,4 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 772 tasi (7,7 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 552 tasi (5,5 %) - tashish va saqlash, 159 tasi (1,6 %) - axborot va aloqa sohasi, 97 tasi (1,0 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, shuningdek 941 tasi (9,2 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019-yil yanvar-sentyabr oylarida 2031 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 94,5 % ga oshgan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Guliston shahri (518 ta), Sirdaryo (327 ta), Boyovut (161 ta) va Guliston tumanlari (156 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Shirin shahri (40 ta), Xovos (124 ta) hamda Oqoltin (127 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

**2019-yilning yanvar-sentyabr oylarida yangi tashkil etilgan
kichik korxonalar va mikrofirmalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (687 ta), sanoatda (445 ta), qurilishda (263 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (256 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (18 ta), axborot va aloqada (21 ta) hamda tashish va saqlashda (38 ta) tashkil etilgan.


Oilaviy korxonalar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2019-yilning 1-oktyabr holatiga 160 tani tashkil etib, ulardan 148 tasi yoki 92,5 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 38,5 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 47,3 % yoki 70 tasi sanoat, 17,6 % yoki 26 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 15,5 % yoki 23 tasi savdo, 12,2 % yoki 18 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,4 % yoki 2 tasi tashish va saqlash, 0,7 % yoki 1 tasi axborot va aloqa hamda 5,3 % yoki 8 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %**




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kami esa tashish va saqlash, axborot va aloqa kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

2019-yilning yanvar-sentyabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarini soni, birlikda


| | Korxonalar soni | Jamiga nisbatan ulushi, % |
|--------------------------|--------------------|---------------------------------|
| Sirdaryo viloyati | 69 | 100 |
| Oqoltin tumani | 5 | 7,3 |
| Boyovut tumani | 5 | 7,3 |
| Sayhunobod tumani | - | - |
| Guliston tumani | 7 | 10,1 |
| Sardoba tumani | - | - |
| Mirzaobod tumani | 4 | 5,8 |
| Sirdaryo tumani | 17 | 24,6 |
| Xovos tumani | - | - |
| Guliston shahar | 21 | 30,4 |
| Shirin shahar | 1 | 1,4 |
| Yangiyer shahar | 9 | 13,1 |

2019-yil yanvar-sentyabr oylarida 69 ta oilaviy korxonalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 4,6 martaga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar Guliston shahri (21 ta), Sirdaryo (17 ta), Yangiyer shahri (9 ta) va Guliston tumani (7 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Shirin shahri (1 ta) hamda Mirzaobod (4 ta) tumanlarida tashkil etilgan.


2019-yil yanvar-sentyabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



sanoat



Savdo



Yashash va ovqatlanish
bo'yicha xizmatlar



Qishloq, o'rmon va
baliq xo'jaligi



Boshqa xizmat
turlari

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 66,7 % yoki 46 tasi sanoat, 7,2 % yoki 5 tasi savdo, 10,1 % yoki 7 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 14,5 % yoki 10 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi hamda 1,5 % yoki 1 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

Sirdaryo viloyati statistika
boshqarmasi statistik registrlarni
yuritish bo'limi Tel.:67-225-31-00